

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muloqotning psixologik tamoyillari xususida	90
M.M.Kaxarova	
Til va nutq tushunchasi	97
M.M.Kaxarova	
Konsept va u bilan bog'liq terminlar xususida.....	103
E.V.Yugay	
Clarity and accessibility as drivers of scientific impact in academic writing.....	107
D.I.Sattarova	
Siyosiy matnlarda intertekstual unsurlar va ularning kommunikativ ahamiyati	112
G.U.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tilshunosligida "Baxt" va "Baxtsizlik" konseptlarining o'rganilishi.....	117
G.U.Maxmudjonova	
O'zbek tilida orfoepik me'yorlarni avtomatlashtirishning muammolari va yechimlari	123
Sh.R.Askerova	
Metaphor and its types in modern french.....	127
H.U.Davlatova	
Tilshunoslikda nutq ontogenezining psixolingvistik tadqiqi va uning ilmiy-nazariy asoslari	131
Z.S.Kenjaye	
Boysun tumani oronimik tizimida zoonim komponentli oronimlar	138
A.R.Kosimov	
Критическое отношение к собственной педагогической практике.....	143
M.Ш.Бахриддинова	
Антропоцентрический подход в переводе и влияние когнитивных и культурных факторов на восприятие	146
Ч.Х.Чамолов	
Иртиботи забонҳои тоҷикӣ ва ӯзбекӣ	151
X.P.Murtozoev, M.A.Ubaydullozoda	
Ҳодисаи савтии ҷойивазкунии овозҳо дар ашъори намояндагони сабки Хуросонии адабиёти тоҷику форс.....	158
X.J.Sayfullayev, F.M.Ulasheva	
Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	164
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida milliylik ifodasi: realiyalar va ularning inglizcha tarjimadagi talqini	171
S.M.Muminov, Sh.D.Muxtorova	
Data jurnalistikasi va uning ma'lumotlar tahlilida tutgan o'rni (internet nashrlari misolida)	176
U.To'rayeva	
O'zbek tili grammatikasining zamonaviy o'qitilish usullari: muammo va yechimlar.....	182
H.U.Davlatova	
Nutq ontogenezining lingvistik tadqiqi	187
I.V.Xoldarova	
Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari	195
N.ShAbdullayeva	
Teaching the use of thesauruses to english as a foreign language learners: pedagogical approaches and lexical development	198
M.O.Obilov	
Kognitiv sxemalar va freymlar: akademik matn yaratishda shaxsiy tajribaning roli	207
N.Sh.Abdullayeva	
Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration	212
Z.A.Akbarova	
Inson dunyo qarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	219
I.B.Xabibullayev	
Said Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasidagi oilaviy munosabatlarda psixofiziologik holat tasviri.....	222
M.X.Hakimov	
Implitsitlik kategoriyasi xususida	227



UO'K: 811.161.2:911.3

BOYSUN TUMANI ORONIMIK TIZIMIDA ZONIM KOMPLEMENTLI ORONIMLAR

ОРОНИМЫ С ЗООНИМИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ В ОРОНИМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ
БОЙСУНСКОГО РАЙОНАORONYMS WITH A ZOONYMIC COMPONENTS IN THE ORONYMIC SYSTEM OF
BOYSON DISTRICTKenjayev Zohirjon Sobirovich 

Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola Boysun tumani oronimik tizimini lingvistik tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, xususan, tarkibida hayvonlar nomlari – zoonim komponenti bo'lgan oronimlar, ya'ni zoooronimlar tadqiq qilinadi. Misollar asosida ko'rsatiladiki, bu nomlarning paydo bo'lishi tabiiy omillar (hayvonlarning yashashi, oronim shaklining hayvonga o'xshashligi), madaniy-mental xususiyatlar (totemiz, milliy o'yinlar) hamda mahalliy aholining kuzatuvlari bilan bog'liq. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Boysun tumani oronimlarining 10% ini zoonim komponentli oronimlar tashkil etadi. Ular uy hayvonlari (Otguzar, Ayg'irtepa), yovvoyi hayvonlar (Qoplondara, Tulkixona), qushlar (Laylakxona, G'ajirqoya) va hasharotlar (Qo'ng'izbuloq) nomlariga asoslangan holda to'rt guruhga tasniflanadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, tog'li hudud bo'lgani sababli yovvoyi hayvonlar nomi bilan bog'liq zoooronimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Maqolada Otchopar, Do'ltaxona, Ayg'irtepa, Xukparida, Tangimush va Ko'ppak tepa kabi oronimlarning etimologik va semantik izohlari berilgan. Xulosa qilib aytganda, oronimlar tarixiy kodlar bo'lib, ularni tadqiq qilish tilshunoslik, tarixiy geografiya va etnografiya fanlari uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Аннотация

Данная статья посвящена лингвистическому анализу оронимической системы Бойсунского района, в частности исследуются оронимы, содержащие зоонимный компонент (названия животных), именуемые зоооронимами. На примерах показано, что происхождение этих названий связано с природными факторами (обитание животных, сходство формы оронима с животным), культурно-ментальными особенностями (тотемизм, национальные игры), а также наблюдениями местного населения. По результатам исследования, оронимы с зоонимным компонентом составляют около 10% всех оронимов Бойсунского района. Они классифицированы на четыре группы: по названиям домашних животных (Otguzar, Ayg'irtepa), диких животных (Qoplondara, Tulkixona), птиц (Laylakxona, G'ajirqoya) и насекомых (Qo'ng'izbuloq). Анализ показывает, что, поскольку район является горным, большинство зоооронимов связано с названиями диких животных. В статье приведены этимологические и семантические пояснения к таким оронимам, как Otchopar, Do'ltaxona, Ayg'irtepa, Xukparida, Tangimush и Ko'ppak tepa. В заключение подчеркивается, что оронимы являются историческими кодами, и их изучение имеет большое значение для лингвистики, исторической географии и этнографии.

Abstract

This article is devoted to the linguistic analysis of the oronymic system of Boysun district, specifically investigating oronyms that contain a zoonymic component (animal names), referred to as zoooronyms. Examples demonstrate that the emergence of these names is linked to natural factors (animal habitation, resemblance of the oronym's shape to an animal), cultural and mental characteristics (totemism, national games), as well as the observations of the local population. According to the research results, zoooronyms constitute 10% of all oronyms in Boysun district. They are classified into four groups based on the names of domestic animals (Otguzar, Ayg'irtepa), wild animals (Qoplondara, Tulkixona), birds (Laylakxona, G'ajirqoya), and insects (Qo'ng'izbuloq). The analysis indicates that, due to the mountainous nature of the region, the majority of zoooronyms are associated with wild animals. The article provides etymological and semantic explanations for oronyms such as Otchopar, Do'ltaxona, Ayg'irtepa, Xukparida, Tangimush, and Ko'ppak tepa. In conclusion, oronyms are historical codes, and their study is of great importance for linguistics, historical geography, and ethnography.

Kalit so'zlar: Boysun tumani, oronimlar, oronimik tizim, zoonimlar, zoooronimlar, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, oronimlar, toponimika, lingvistik tahlil.

Ключевые слова: Бойсунский район, оронимы, оронимическая система, зоонимы, зоооронимы, домашние животные, дикие животные, орнитонимы, топонимика, лингвистический анализ.

TILSHUNOSLIK

Key words: Boysun district, oronyms, oronymic system, zoonyms, zoooronyms, domestic animals, wild animals, ornithonyms, toponymics, linguistic analysis.

KIRISH

Tabiatdagi barcha narsalar bir-biri bilan bog'liqlikda va aloqadorlikda o'rganiladi. Bularning ichida hayvonlar alohida o'rin tutadi. Hayvonlar va qushlar qadimdan insoniyat bilan yonma-yon yashab, ular uchun ozuqa, ko'makchi, transport vositasi, do'st kabi vazifalarni bajargan. Ba'zi hayvonlar esa xalqlar uchun totem sifatida qaralgan va o'sha xalq uchun ramz darajasiga ko'tarilgan. Tilshunoslikning onomastika bo'limining muhim tarmoqlaridan biri zoonim va ornitonimlar hisoblanadi. Zoonim va ornitonimlar asosida nomlangan oronimlarni tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligimiz o'rganishi lozim bo'lgan muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilimizda mavjud bo'lgan zoonim tarkibli orografik obyektlarning tadqiqini amalga oshirish ushbu vazifalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Tarkibida hayvonlar, parrandalar va boshqa jonivorlarning nomi bilan atalgan joy nomlar ilmiy adabiyotlarda zootoponimlar" [13; 213 b.] deb ataladi. Zoooronomlar esa ushbu zootoponimlarning ma'noviy turlaridan biri, desak xato bo'lmaydi. Atoqli otlar sirasiga kiruvchi hayvon nomlari bilan bog'liq toponimlar yuzasidan berilgan fikr va mulohazalar ko'pgina toponimshunoslarning tadqiqot obyektlariga aylangan. Jumladan, S.Qorayev [14; 28b.], Sh.Temirov [8; 39b.], O.Begimov [2; 300 b.], N.Uluqov [10; 58b.], D.Bazorov [1; 224 b.], Q.Hakimov [18; 134 b.], M.Mirkamilov [17; 134b.], M.Quvvatova [15; 27b.], B.Zaripov [3; 21 b.], I.Xolmuratov [11; 45 b.], F.Isxodov [4; 48-50 b.], B.Kilichev [18; 180 b.] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi tadqiqotlarga tayangan holda, zoonim komponentli oronimik obyektlarni **zoooronom** termini ostida o'rganishni ma'qul deb bildik. Ushbu nomlar shu hududda hayvonlarni yashaganligi, oronimlarning tashqi ko'rinishida hayvonlarga o'xshashlik mavjudligi, shu hayvon bilan mashg'ulot o'tkazish nuqtayi nazaridan qo'yilgan nomlar hisoblanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mutaxassislarining fikricha, zootoponimlarni chindan ham biror bir hayvon nomi bilan atalganini bilish mushkul, chunki har qanday hayvon nomi ko'chma ma'noda ham qo'llangan bo'lishi, shuningdek, tub aholining lingvomadaniyatidan o'rin olishi bilan bog'lashimiz mumkin. Bunga o'xshash fikrlarni S.Qorayev [20; 183 b.], Q.Hakimov va M.T.Mirkamilov [17; 134 b.] larning ishlarida uchratamiz. S.Qorayev "Agar joy nomi qandaydir hayvon nomi bilan bog'liq bo'lsa, unda toponimdan keyin **-li, -lik, -xona** kabi qo'shimchalar bilan ifodalangan bo'ladi", – deya o'z ma'noda yoki ko'chma ma'noda qo'llanganini aniqlash mumkinligini ham keltirib o'tgan [20; 183 b.].

Tuman oronimik tizimida zoonim komponentli oronimlar biz tahlilga tortgan oronimlar tarkibida 51 ta, ya'ni, 10 % ni tashkil etadi.

Yuqoridagi tadqiqotlarga asoslangan holda Boysun tumanidagi zoonimlar bilan bog'liq oronimlarning o'rinlarini aniqlab, quyidagicha tasniflashni ma'qul deb topdik:

Uy hayvonlari nomi bilan hosil bo'lgan oronimlarga: *Otguzar, Otchopar, Otolish, Otkamar, Govxona, Ayg'irtepa, Biyasig'mas, Inako'ldi, Ho'kizo'ldi, Ho'kizxona, Qo'yqirqqich kamar, Tuyatosh, Tuyakamar, Buzg'ola dara (uloq, uloqcha, echkining bolasi), Xarkush jar, Ko'ppak tepa, Takasho'r, Xarparida, Jilqiyotqich, Qo'yqirilgan kamar* va boshqalarni misol qilishimiz mumkin.

Yovvoyi hayvon nomi bilan hosil bo'lgan oronimlar: *Qoplondara, Ayg'inishtog', Tavushqonlitog', Tulkixona, Xukdara, Tulkikamar, Xukparida, Ayig'ijjak, Gurgxona, Jayragaza, Xukparida soy, Subanxona (kiyik), Do'ltixona (Do'ltaxona), Yo'lbars dara, Ilondara, Bo'rixona, Bo'ritaxta, Bo'rijar tepa, Qoplunuya dara, Kallimorxona tepa* va boshqalar.

Qushlar nomi bilan hosil bo'lgan oronimlar: *Laylakjar, Laylakxona, G'ajirqoya, Chumchuqli jar* kabi oronimik obyektlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Hasharot nomlari asosida hosil qilingan oronimlar: *Qo'ng'izbuloq, Pashshaxona, Shapalakxona* va boshqalar.

Yuqoridagi nomlar xalqning ko'p yillik kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan. Ba'zilarining nomlanishiga sabab bo'lgan omillarni quyidagi izohlarda ko'rishimiz mumkin.

Otchopar – mamlakatimizning ko'plab tog'li hududlarida uchraydi. Boysun tumanida mavjud Otchopar oronimi bevosita mental xususiyat kasb etadi. Chunki ushbu hududda avvallari

milliy sport musobaqalaridan ko'pkari o'tkazilgan. Bu oronim otlarning erkin, chavandozlarning esa qulay harakatlanishi uchun imkon bergan. Bu yerda ko'pkari musobaqalarining ko'p o'tkazilishi ushbu zoonimning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Do'ltaxona – tumandagi orografik obyekt nomlaridan biri bo'lib, ikki, ya'ni, do'ltaxona qismlaridan tashkil topgan. Do'ltaxona adabiy tilda *sirtlon* deb ataladigan o'limtikxo'r hayvonning nomi. S.Qorayev "Toponimika" qo'llanmasida, T.Nafasovning "*yerto'la*", "*o'ydim chuqur*", "*past-balandlik*" [6; 54 b.] ma'nosida qo'llanishini aytib o'tib, do'ltaxonani "*yerto'la*" deyish noto'g'ri ekanligini ta'kidlagan. Chunki *xona* qo'shimchasi tabiiy obyektlar nomlaridan toponimlar yasamasligini keltirib o'tadi [19; 183 b.]. Darhaqiqat, tumandagi bu nom hayvon nomi bilan bog'liq ekanligi xalq tomonidan e'tirof etiladi.

Ayg'irtepa – tumanda joylashgan tepalik. Tik uchli, tiklik xususiyati ortiqcha bo'lgan tepalik. Alohida ajralib turuvchi boshqa tepalardan farq qiluvchi tik enish tepalik [9; 25 b.]. Ayg'ir – otbozlar va otboqarlar nutqiga xos so'z. Adabiy tilda uch-to'rt yoshli erkak, nasllik ot - ayg'ir. Bichilmagan erkak ot. Ayg'ir so'zi anglatgan tushunchaning tepa, ko'l so'zlariga daxldorligi kam. Xalq orasida tepaning yorilib, ichiga ot (ayg'ir) kirib ketganligi, ayg'irning ko'lga sho'ng'ib gumdon bo'lganligi, ko'l suvidan chiqmaganligi haqida turli xil rivoyatlar bor. O'zbek xalq ijodida xayoliy ertaklar ham to'qilgan. Ertaklarda mo'jizakor otning suvdan chiqib kelishi, suvga kirib ketishiga doir tafsilotlar ko'p [6; 54 b.]. Samarqand viloyatining Jomboy tumanida shu nomdagi qishloq mavjud. Bundan tashqari, "O'zbekiston joy nomlari izohli lug'ati"da berilishicha, Ayg'ir – "ayg'ir ot", toponimiyada "yirik", "katta" ma'nosidadir; shunday tushunchadagi Ayg'irtepa – katta, yirik tepalik. Ayri, ayriq – "ikkilangan", "ikki cho'qqisi bilan" nomli geografik terminlar bor (tovushlarning almashishi natijasida "ayriq" so'zi ayg'ir shaklini olgan), Ayg'irtepa (Ayrirtepa) – "ikkita cho'qqili tepalik", "ikki boshli tepalik" ma'nosini ifodalaydi [21; 624 b.].

Xukparida (dara) – tumanda dara va shu nomdagi soy nomi ham mavjud. Xuk tojik tilida cho'chqa ma'nosini anglatadi. Forscha "cho'chqa qulab tushgan", "to'ng'iz qulab tushib o'lgan" degan ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu oronimning aynan shunday nomlanishida bevosita cho'chqa zoonimining aloqadorligi sezilib turibdi.

Tangimush – Boysun tumanida joylashgan dara. Tangi (taḡi) Bu ot tojik tilida "tor" ma'nosini anglatadigan tang (taḡ) sifatiga -y qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan bo'lib, o'zbek tilida y tovushining cho'ziqligi yo'qolgan, tojik tilida "torlik" ma'nosini o'zbek tilida "ikki tog'ning ostki, tutashgan tor yeri", "tor dara" ma'nosini anglatadi [7; 221 b.]. Tangi – "tor dara", Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asarida, mush – "mushuk" [5; 140]. Daraning enini mushukning eniga qiyoslab qo'yilgan nom hisoblanadi, ya'ni Tangimush – "*mushukday tor dara*", "*juda tor, yurish qiyin, hatto mushuk o'tishi qiyin bo'lgan dara*" ma'nolarini ifodalaydi.

Ko'ppak tepa – oronimi aslida totem xarakterdagi teooronim hisoblanadi. Ushbu oronimning nomlanishida ko'ppak (qo'riqllovchi itlarning xashagi zoti) [20; 994 b.] zoonimi asos bo'lib xizmat qilgan. Ushbu oronim haqidagi afsonaga ko'ra, kunlarning birida suruvga yov oralaydi hamda ularga cho'ponning sadoqatli iti qarshilik qiladi. Itning yov o'qidan joni uzilgach, Hazrati Sulton Valiy Balogardon unga janoza o'qiydi va Omonxona soyining chap qirg'og'ida, Kichik Boshbuloqning tepasiga ko'madi, Qur'on tilovat qilib, qabrga dam uradi. Aytishlaricha, o'shandan buyon qabr tuprog'i quturish, temiratki, qo'tir kabi xastaliklarga davo ekani bilan mashhur bo'lgan ekan [12; 62 b.].


Dunyo xalqlari qadimdan hayvonlar bilan qanday munosabatda bo'lgan bo'lsa, qushlar bilan ham shunday munosabatda bo'lgan. Ba'zi qushlar xalqning totemi sifatida mifologik qarashlaridan o'rin olgan [16; 110 b.]. Qushlarning atoqli otga ko'chishida ma'lum bir omillar muhim rol o'ynaydi. Jumladan, toponimga ko'chayotgan joy nomi bo'lsa, o'sha hududda ma'lum bir qushning ko'p bo'lishi, avvaldan o'sha yerlik aholi bilan birgalikda yashab kelayotganligi yoki muhim voqea-hodisada qushlarning ishtirok etish darajasi inobatga olinadi. Shu ma'noda, Boysun tumanida ham ornitonimlar nomi bilan ataluvchi oronimlar mavjud. Xususan:

G'ajirqoya – tumandagi tog'. Zoologik ilmiy adabiyotlarda *tasqara* nomi bilan ataladigan o'limtikxo'r xunuk qush nomi xalq shevasida *g'ajir* deb ataladi.

Laylakxona ornitooronimi bevosita laylaklarning o'sha obyektida ko'p bo'lishi bilan bog'liq. Laylakxona ornitonimida salqin kunlarning ko'pligi o'sha hududda laylaklarning ko'proq qolishiga va o'sha hududning "Laylakxona" nomini olishiga sabab bo'lgan.

TILSHUNOSLIK

Tadqiqotimiz davomida obyekt sifatida o'rgangan hayvon va qush nomlari bilan bog'liq oronimlarni tahlil qilar ekanmiz, zoooronimlarning nisbatini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:



2.2-rasm. Boysun tumanida mavjud zoooronimlarning statistik nisbati

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston hududidagi orografik tizimlar (tog' va tog'oldi mintaqalari) bioekologik jihatdan qulay muhit yaratganligi sababli, flora va faunaning, xususan, zootsenoz vakillari (hayvonlar va qushlar)ning uzoq asrlar davomida barqaror yashash arealiga aylangan. Ushbu tarixiy-ekologik omil oronimik nominatsiya jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Boysun tumani oronimik tizimida aniqlangan eng yirik 51 ta zoooronimning etimologik va leksik-semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati yovvoyi hayvonlar nomi asosida shakllangan. Bu oronimik dominantlik bejiz emas.

Boysun tumani o'zining geomorfologik tuzilishiga ko'ra baland tog'li o'lka (tog'lik o'lka) hisoblanadi. Tog'li hududlar, tabiatan, kamroq urbanizatsiya va antropogen ta'sirga uchraganligi sababli, yovvoyi hayvonlar uchun ideal ekologik areal vazifasini o'taydi. Natijada, ushbu hududlarda yovvoyi zoonimlarning toponimik xotirada aks etish chastotasi sezilarli darajada oshadi. Yovvoyi hayvonlarning nomlari oronimlarga ko'chirilishida ikki asosiy mexanizm kuzatiladi:

Metonimiya. Nomlanayotgan tog', dara yoki qoyada o'sha yovvoyi hayvonlarning ko'plab yashaganligi yoki yashash areali bo'lganligi sababli (masalan: Qoplondara, Tulkixona).

Metafora. Oronimning relyef shakli yoki tashqi ko'rinishi yovvoyi hayvonning tanasiga, qismiga yoki harakatiga o'xshatilgan holda nomlangan (masalan, ehtimoliy ma'noda: Bo'ritaxta – bo'riga o'xshash qoya toshi).

Oronimlar, ba'zan, faqatgina bevosita hayvonning yashashi bilan bog'liq bo'lmay, balki mahalliy xalqning mifologik qarashlari, totemizm unsurlari yoki etnik guruhlarining lingvomadaniyatiga oid qatlamlarni ham aks ettiradi, masalan, Ko'ppaktepa misolida keltirilgan afsonaviy-totemik asos. Boysun tumanidagi zoonim komponentli oronimlar tarkibida yovvoyi hayvonlar nomining ko'pligi kompleks toponimik jarayonning natijasi bo'lib, u hududning jismoniy geografiyasi, bioekologik xususiyatlari va mahalliy aholining lingvomadaniy merosi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni isbotlaydi. Bu oronimlar – nafaqat joy nomlari, balki hududning tabiiy tarixi va madaniy yodgorliklarining lingvistik arxivi hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, oronim nomlarining kelib chiqishi, nomlilik belgisi, nomning ma'lum davrda o'zgarishi qadim zamonlardan kishilarning e'tiborini tortib kelgan. Bu bejiz emas, chunki har bir oronimning nominatsiyasida, albatta, biror voqea, tabiiy hodisa, xalq, urug', qabila, elat yoki ayrim shaxslarning ma'lum ishtiroki haqidagi tarixiy ma'lumotlar yashiringan bo'ladi. Oronimlar – bu o'ziga xos tarixiy "kodlar" bo'lib, ularni lingvistik jihatdan tadqiq etish o'tmishdagi madaniy qatlamlar, aholi migratsiyasi, etnik guruhlarining joylashuvi va hatto tabiat o'zgarishlari haqida bebaho tarixiy haqiqatlarni aniqlash imkonini beradi. Shu ma'noda, aynan tuman hududidagi oronimlarning etimologiyasini chuqur lingvistik tadqiq qilish nafaqat tilshunoslik uchun, balki tarixiy geografiya va etnografiya fanlari uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqotlar joy nomlarining asl ma'nosini tiklash, ularning fonetik va semantik evolyutsiyasini kuzatish, shu bilan birga, mahalliy aholining o'z hududiga bo'lgan munosabatini va o'zlik

tushunchasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu muhim ishni tizimli asosda davom ettirish va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida bir qator takliflarni yuzaga chiqaradi. Jumladan, tuman hududidagi mavjud va tarixda ishlatilgan barcha oronimlarni o'z ichiga olgan elektron reyestr (kadastr) tuzish lozim. Bu reyestr nomning hozirgi shakli, tarixiy variantlari, etimologik izohi va joylashuvining GPS koordinatalarini qamrab olishi kerak. Joy nomlarining kelib chiqishiga oid mahalliy afsona, rivoyat va xalq etimologiyalarini yig'ish uchun tizimli ekspeditsiyalar uyushtirish, shuningdek, nomlarning tarixiy o'zgarishini kuzatish maqsadida eski xaritalar, yozma manbalar va arxiv hujjatlarini o'rganishni tashkil etish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Базаров Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Тошкент: Фан, 1973. 224 с.
2. Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон оронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. Филол. фан. д-ри. ...дисс. – Самарқанд, 2021. – 300 б.
3. Зарипов Б. Зоонимларнинг бадиий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари асосида). Фил. фан. ном. ...дисс. автореф. – Тошкент. 2002. – 21 б.
4. Исходов Ф. “Зарбулмасал” даги қуш номларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. №1. – Б. 48-50.
5. Кошғарий. Девони луғотит-турк. – Тошкент: ЎзФА. нашриёти, 1960. – 500 б.
6. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. – Қарши: Насаф, 1993. – 154 б.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
8. Темиров Ш.А. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Филол. фан. фал. док. ...дисс. автореф. Қарши, 2019. – 51 б.
9. Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 149 б.
10. Улоқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 58 б.
11. Холмуротов И.О. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг лисоний тадқиқи. Филол. фан. фалсафа. док. ... дисс. автореф. – Бухоро, 2020. – 45 б.
12. Шоҳ Мурод Шароф. Омонхона мўжизалари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1996. – 63 б.
13. Қораев С. Ўзбекистон вилояти топонимлари. – Тошкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – Б. 213.
14. Қораев С. Ҳайвонларнинг қадимий номлари. Фан ва турмуш. 1974. №2. – Б. 28.
15. Кувватова М.А. Историко-лингвистическое исследование топонимии нурека и его окрестностей. Автореф. канд. филол. наук. – Душанбе, 2019. – 27 с.
16. Bozorov N. O'zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Termiz, 2023. – 164 b.
17. Hakimov Q.M., Mirkamilov M.T. Toponimika. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – 376 b.
18. Hakimov Q.M., Mirkamilov M.T. Toponimika. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – 376 b.
19. Kilichev B. Onomastika. – Buxoro. 2023. – 180 b.
20. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.
21. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 994 b.
22. O'zbekiston joy nomlari izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – 624 b.